

**UMUMXALQ SO'ZLASHUV USLUBI VA ADABIY TIL MUNOSABATI
(Turkman tili materiali misolida)****Altiboy Qurtchayev**

O'qituvchi, QQDU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7364037>

Annotatsiya

Maqolada nutqqa xos uslubiy bo'yoqdorlik tabiati, grammatik vositalar tafovuti, tovush o'zgaruvi paradigmasi hamda gapda so'z tartibi erkinligi turkman tili materiali misolida tahlilga tortiladi. Unda normadan og'ish holati, milliy til mental xususiyatlari, hududga xos belgilar namoyishi, sintaktik birliklar amaliy ishlanganlik darajasi xususida mushohada yuritiladi. Aslida umumxalq so'zlashuv uslubi va adabiy til bir-biriga muqobil tushunchalar, ikkala istiloh ham harakatdagi ijtimoiy hodisa sifatida nutqqa mansub umummajburiy qonuniyatlarni tavsiflaydi.

Tayanch so'zlar: nutq, umumxalq so'zlashuv uslubi, adabiy til, mental xususiyatlar, grammatik vositalar, tovush o'zgaruvi paradigmasi, normadan og'ish, sintaktik birliklar, gap, so'z tartibi, turkman milliy tili, uslubiy bo'yoqdorlik, belgi.

Amaliyotda keng tarqalgan umumxalq so'zlashuv uslubi muayyan xalq adabiy va odatiy nutq tiplarini omuxtalashtiradi. Unda leksik hamda frazeologik birliklardan manzilli foydalanish darajasi, muloqot jarayonida ekspressiv yurish va emotsional idrok uyg'unligi saqlanishi, rivoyada maqsad va vazifa tafovuti, ifoda va tasvir bir-biriga o'tib turishi jilolanadi. Vaholanki, umumxalq so'zlashuv uslubi "tilning adabiy normalariga mos, tartibga solingan va ishlangan bo'lishi bilan xarakterlanadi. Qisqasi, adabiy so'zlashuv uslubi umumxalq adabiy tilining eng keng va universal turi" [4, 187] hisoblanadi. Nutq tabiati va til normativ xarakteri aslida bir-biriga bog'lanadi, unda leksik-semantik zahiradan o'rinli hamda to'g'ri foydalanish darajasi aks etadi. Maqsad va tanlov uslubiy vazifadoshlik ehtiyojidan hosil bo'ladi, aloqa-aralashuv jarayonida axborot almashinuvi hodisasi yuz beradi:

Umumxalq so'zlashuv uslubida: Ilatymyza Taşkentden myhmanlar geldi. Doganym erte bakja gitýe; Turkman adabiy tilida: Obamyza Daşkentden myhmanlar geldi. Jigim ertir çagalar bagyna gitýär.

Umumxalq so'zlashuv uslubi va turkman adabiy tilida keltirilgan namunada leksik tafovut hamda fonetik o'zgarish mavjudligi kuzatiladi. Unda nutqda erkinlik darajasi va umummajburiy qonuniyatlarni muqobilligi ko'zga tashlanadi, vazifa maqsadga yo'naltirilgan talqini ma'no maxrajini

o'zgartirmaydi, balki tafakkur va idrok aloqasini mustahkamlaydi. Emotsional ohang darak gapni tavsiflaydi, sodda hamda ravon mushohada nisbati axborot hajmini urg'ulash amalini bajaradi. Xolis va xoslangan ifoda genetik asosga ega barqaror tasavvurlarni mantiqan uyushtiradi.

Turkman adabiy tili taraqqiyotini belgilagan ichki omillardan biri xalq tili va so'zlashuv uslubi boyligiga payvandlanadi. Folklor namunalaridan o'zlashgan nutq fonetik, leksik-grammatik va stlistik rang-barangligi adabiy til va dialekt o'zaro munosabatini mustahkamlashga xizmat qiladi. "Turkman adabiy tili va dialektlari orasidagi tub spetsifik tafovutlar ba'zi shevalar o'rtasida ham mavjud. Xalq tili va adabiy til aloqasida vujudga kelgan o'zgarishlar turkman xalqi turmush tarzi, shart-sharoiti hamda madaniyati bilan bog'liq" [5, 15]. Jo'grofiy hudud, turkman millati shakllanish bosqichlari, madaniy hamkorlik va qardosh hamda qardosh bo'lmagan tillar uzluksiz ta'siri joriy holatni dalolatlaydi. Mintaqviy va ijtimoiy o'garishlar muntazam adabiy til va nutq madaniyatini yangilab boradi, binobarin, til, nutq hamda tafakkur aloqadorligi mental xususiyatlar ziddiyati-uyg'unligiga tayanadi:

Umumxalq so'zlashuv uslubida: Kitabym ýanymda däl bolanda berýedim. Maral ejesinden köýnek äpbermegini sorady? Turkman adabiy tilida: Kitabym ýanymda däl ýogsam bererdim. Maral ejesinden köýnek alyp bermegini sorady?

Ikki tipda berilgan jumlar muqoyasasi talqinda so'z va tovush o'zgaruvga uchraganini ko'rsatadi: dastlabki namunada (bolanda berýedim - ýogsam bererdim) leksik birlik almashadgan, ikkinchi misolda (äpbermegini- alyp bermegini) fonetik transkripsiya yuzaga kelgan. Taraqqiyot muayyan bosqichida adabiy til va xalq so'zlashuv uslubi o'rtasida aloqa kuchayadi, boshqa ijtimoiy etaplarda rishta ancha kuchsizlanadi. An'ana va tajriba omuxtalashadigan konstruksiyalar o'zgaruvi aslida tabiiy hodisa, chunonchi, harakatdagi ijtimoiy hodisa sifatida lisoniy sathlar doimo yangilanib turadi. Unda milliy tasavvur materiali mavjudligi in'ikos topadi.

"Adabiy tilni umumxalq tilidan, shu tilda so'zlovchi xalqning so'z madaniyati takomillashgan oliy turi sifatida baholash joiz, uni xalq tiliga qarshi qo'yib baholashga bo'lmaydi. Adabiy til normalari va ifoda usullari shu tilda so'zlovchi xalq tomonidan yaratilishi barobarida jamiyat a'zolari tarafidan katta madaniy boylik sifatida muhofaza qilinadi" [3, 3]. Qayta ishlangan, ijodkorlik yo'nalishida boytilgan adabiy til quvvat-hofizani ichki manbalardan oladi. Ijod jarayoni boshqaruvi va rivoji davomiy hodisa, unda xos belgilar milliy idrok o'lchamini hosil qiladi. Etnik jihatdan madaniyat ifodasini tashiydigan

umumxalq so'zlashuv uslubi adabiy til amaliyotida sayqallanadi va nutqiy malakani boyitadi:

Umumxalq so'zlashuv uslubida: Ura, erte dädem gelye. Suwsap iýeñde garpyzagzyña bal ýaly degýär. Turkman adabiy tilida: Ura, ertir kakam gelyär. Suwsap iýeniñde harwyz agzyña bal ýaly degýär.

Umumxalq so'zlashuv uslubi va turkman adabiy tili munosabati grammatik tartib o'zgarmligini dalolatlaydi. Aynan vujudga keladigan tafovutlar, odatda, morfologik, leksik va fonetik sathlarda namoyon bo'ladi. Joriy holatda lug'aviy birlik muqobili (dädem- kakam), tovush orttirilishi (erte-erter) masala mohiyatini oydinlashtiradi. Darak gap ikki tip – adabiy til va umumxalq so'zlashuv uslubi orasida tipologik mushtaraklik mavjudligini mantiqan tasdiqlaydi. Tushunarli va lo'nda jumlar ijtimoiy-tarixiy vaziyat hosilasi sifatida real manzarani yaratadi.

Umuman, turkman adabiy tili va umumxalq so'zlashuv uslubi orasida jiddiy farq sezilmaydi. Mavjud holat, birinchidan, millat ijtimoiy-tarixiy rivojlanish bosqichlari aloqadorligiga tayanadi, ikkinchidan, mental xususiyatlar va madaniy hamkorlik mustahkamligini dalolatlaydi, uchinchidan, harakatdagi sotsial hodisa davomiyligini tavsiflaydi, to'rtinchidan, til ichki va tashqi omillari mushtarakligi yetakchi mezon ekanligini belgilaydi. Milliy til va adabiy til islohoti aslida xalq poetik arsenali ildizlariga borib taqaladi. Etnik jihatdan rivojlangan til madaniyati nutq madaniyati amaliy ishlanmasini boyitadi, to'ldiradi va tartibga solib turadi.

Adabiyotlar:

1. Saparov M. Xorazm vohasidagi turkiy tillarning o'zaro munosabati. - Toshkent: Fan, 1988.
2. Shixiyev A. Turkmenskiye govori Buxarskoy oblasti. – Nukus: Bilim, 1990.
3. Abdinazimov Sh. Til – milletin' ruu'hi. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2017.
4. Muhiddinova X., Xudayberganova D., Umirov I., Jiyanova N., Yusupova T. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
5. Turkmen dilinin' dialektlerinin ocherki. – Ashgabat: Ilim, 1969.
6. <http://www.ziëuz.com/>.

